



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL  
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ  
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/1-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

## AYRIM SOTSIOLINGVISTIK ATAMALAR HAQIDA

Yorqinjon Odilov<sup>1</sup>

<sup>1</sup>O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti bo‘lim mudiri, filologiya fanlari doktori, professor

KALIT SO‘ZLAR	ANNOTATSIYA
sotsiolingvistika, til siyosati, til vaziyati, lisoniy birxillik, lisoniy harxillik, ikkitillilik, bilingvizm, diglossiya, idiom, tilning yashash shakllari.	Mazkur maqolada sotsiolingvistika sohasiga oid muhim atamalar va ularning jamiyatdagi roli haqida fikr yuritilgan. Lisoniy birxillik, harxillik, ikkitillilik kabi atamalar tavsiflanib, ularning ijtimoiy va madaniy kontekstlardagi ahamiyati keng muhokama qilinadi. Shuningdek, ushbu tushunchalar til siyosati va tilning turli shakllari bilan qanday bog‘liq ekanligi tushuntiriladi.
КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА	АННОТАЦИЯ
социолингвистика, языковая политика, языковая ситуация, лингвистическое единообразие, лингвистическое разнообразие, билингвизм, диглоссия, идиома, формы жизни языка.	В данной статье рассматриваются важные социолингвистические термины и их роль в обществе. Описываются такие понятия, как лингвистическое единообразие, разнообразие, билингвизм, и обсуждается их значимость в социальных и культурных контекстах. Также объясняется, как эти концепции связаны с языковой политикой и различными формами жизни языка.
KEY WORDS	ABSTRACT
sociolinguistics, language policy, language situation, linguistic uniformity, linguistic diversity, bilingualism, diglossia, idiom, forms of language life.	This article discusses important sociolinguistic terms and their role in society. It describes concepts such as linguistic uniformity, diversity, and bilingualism, and discusses their significance in social and cultural contexts. Additionally, the article explains how these concepts are connected to language policy and various forms of language life.

**Kirish.** Har qanday fanning shakllanishi va rivojlanishini terminlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Tilshunoslikning terminologiya bo‘limi turli fan sohalarining terminlarini tilning qonun-qoidalarga muvofiq lashtiradi, tartibga soladi, unifikatsiya qiladi. Shu bois har doim fanda – ilmiy bilish jarayonida terminologik va leksikografik ishlarga katta zarurat – katta ehtiyoj bor. Terminologik tushunchani aniq va to‘liq atay oladigan termin tadqiqotchilari ilgari surmoqchi bo‘lgan qarashning jo‘yali ifoda topishini ta’minlash bilan birga, ilmiy asarni o‘qishli ham qiladi. Shu ma’noda o‘zbek

sotsiolingvistikasida farqli talqin qilinayotgan ayrim atamalarni birxillashtirish zarurati bor. Quyida sotsiolingvistikadagi ayrim terminlarning talqinlarini berib o‘tamiz.

**Tadqiqot metodologiya.** Sotsiolingvistika o‘zbek tilshunosligining kenja sohalaridan biri bo‘lganligi sababli monografik tadqiqotlar u qadar ko‘p emas. S. Mo‘minovning “O‘zbek muloqot xulqining lisoniy xususiyatlari” [6], H. Dadaboyev va Sh. Usmonovanning “Xorijiy sotsiolingvistika” [1], A. Berdialiyevning “O‘zbek sinxron sotsiolingvistikasi” [3] kabi tadqiqotlar bor. Rus



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL  
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ  
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/1-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

sotsiolingvistikasida salmoqli tadqiqotlar bajarilgan. Alohida “Sotsiolingvistika atamaları lug‘ati” ham tuzilgan. Qozoq tilshunoslari ham “Sotsiolingvistika atamalarining qozoqcha-ruscha lug‘ati”ni tuzganlar [8]. Ammo til va jamiyat, tillararo aloqalar yuzasidan E. Begmatov va boshqalarning kitoblari mavjud [2]. Maqolada tahlilga tortilgan atamalarni tavsiflashda yuqoridagi manbalarga murojaat qilindi.

Mazkur tadqiqot davomida leksikografik tahlil, qiyoslash, tavsiflash usullaridan foydalanib, atamalarining sotsiolingvistik jihatlari tushuntirildi. Ayniqsa, leksikografik tahlil va tavsiflash usullaridan faol foydalanildi.

**Natijalar.** Sotsiolingvistikada “lisoniy birxillik” va “lisoniy harxillik” tushunchalari mavjud. Tillarning yashashi, amal qilishi bilan bevosita bog‘liq mazkur tushunchalarning mohiyatida davlatning til siyosati va bu siyosatning xolis va noxolisligi turadi, qolaversa, mavjud tillarning qo‘llanishi va rivojlanishi uchun sharoit yaratilganligi yoki yaratilmaganligi ham lisoniy birxillik va ko‘pxillikka ta’sir qiladi. Lisoniy birxillik muayyan mamlakat yoki uning biror hududida bitta til yoki uning bitta yashash shaklining olamni bilish, fikr va munosabat ifodalash vositasi sifatida ishlatilayotganligini bildiradi. Bunday til muhiti Afrika va Amerikadagi qabilaviy tillarni hisobga olmaganda, dunyo lisoniy manzarasida juda siyrak kuzatiladi. Globallashtirilgan dunyoda, davlat va davlatchilik tushunchalari bor jamiyatlarda lisoniy birxillik deyarli yo‘q. Sotsiolingvistlar orol davlat hisoblangan Islandiyadagina lisoniy birxillik – faqat bitta tilning amal qilishini qayd qiladilar. Ammo bugun bu davlatga ham sayyohlik omili o‘laroq ingliz tili yetib borgan bo‘lsa kerak.

Lisoniy birxillik talqinida uning tabiiy shakllanishi bilan ongli yuzaga keltirilishini nazardan qochirish lozim. Tabiiy shakllangan

lisoniy birxillik haqida gap ketganda, muayyan kichik hududlarda kishilarning faqat bir tildan foydalanishi ko‘p uchraydigan holat. O‘zbekiston sharoitida ham faqat bir millat vakillari yashaydigan tumanlar bor va u yerda yashovchilar faqat bitta tildan foydalanadilar, zero, boshqa tildan foydalanishga ehtiyoj ham yo‘q. Shunday hududlarga nisbatan lisoniy birxillik amal qiladi, deyish mumkin.

Sotsiolingvistikada “lisoniy birxillik”ka zid bo‘lgan til muhitini tavsiflaydigan “lisoniy harxillik” atamasi ham bor. U – muayyan mamlakat yoki uning biror hududida ikki va undan ortiq tilning olamni bilish, fikr va munosabat ifodalash vositasi sifatida mavjudligini anglatadi. Masalan, O‘zbekiston sharoitida o‘zbek, qoraqalpoq, qozoq, qirg‘iz, turkman, tojik va rus tillarining muloqot vositasi, olamni bilish shakli sifatida amal qilishi lisoniy harxillikka misol bo‘ladi. Lisoniy harxillik deganda, tillarning juda tor doirada, juda nafaol bir tarzda qo‘llanishini tushunmaslik kerak. Masalan, O‘zbekistonda ingliz tili hali olamni bilish shakli sifatida amal qilishga o‘tgani yo‘q. Demak, bir ma’muriy-siyosiy hududda bir necha tilning amal qilishi, bu tillarning kishilar uchun olamni tanish, bilish vositasi sifatida foydalanilishinigina lisoniy plyuralizm deyish mumkin. Lisoniy harxillikning saqlanib qolishida til siyosati va shu siyosatdan kelib chiqadigan til qonunchiligining ta’siri katta. Konstitutsiya, qonun va qonunosti hujjatlarida milliy tillarning yashashi va qo‘llanishining huquqiy himoyalanganligi lisoniy harxillikni saqlab qolishga xizmat qiladi. Tillarning teng va keng sharoitda qo‘llanishi shu hududdagi til siyosatining xolisligi bilan izohlanadi.

Lisoniy harxillikning eng ko‘p uchraydigan ko‘rinishi ikkitillilik hisoblanadi. Ikkitillilik (bilingvizm) – muayyan jamiyatda bir vaqtda ikki tilning mavjud bo‘lishi, turli funksional sohalarda




www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL  
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ  
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/1-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

qo‘llanishi. Ikkitillilikda ko‘p tillilikdan farqli ravishda, kishilar o‘z ona tili va ikkinchi tilda u yoki bu hodisani mustaqil baholay oladi. Bilingvizm atamasi bilan zamonaviy fanda ommalashgan hodisa sharq xalqlari hayotiga ham xos bo‘lgan. Sharqda zullisonaynlik deb ataladigan hodisa azaldan Movarounnahr va Xurosonning tegishli hududlarida o‘zbek-tojik ikkitilliligi tarzida amal qilib kelgan, bu tillarda badiiy asarlar yaratilgan va ayni tillarda ijod qilganlarni “zullisonayn shoir” deb atalgan. O‘zbek-tojik ikkitilliligini turkiy va arab tillarida ilmiy asarlar yozish an‘anasi bilan tenglashtirmaslik lozim, chunki bu jarayonda arab tili passiv holatda bo‘ladi.

Tilshunoslikda ikkitillikka yaqin yana bir hodisa bor va u shaxsning bir tilning ikki shaklidan foydalana olishini, masalan, adabiy til va o‘zi tug‘ilib o‘sgan hudud dialektida so‘zlasha olish malakasiga egaligini bildiradi. Ayni hodisalararo o‘xshashlik sababli tilshunoslikning turli davrlarida shaxsning ikki tilni bilish malakasiga egaligiga nisbatan bilingvizm va diglossiya atamaları sinonimik qo‘llanib kelgan. Buning yana bir sababi har ikki atamaning turli tilshunosliklarda hosil qilinganligi va tarqalganligidir. Bilingvizm Yevropa xalqlari tilshunosligida ommalashgan bo‘lsa, diglossiya Amerika tilshunosligiga qo‘llanishga kirgan. Bugun lingvistik mohiyati birmuncha farqlanib qo‘llanayotgan ushbu atamalar tilshunoslikda ikki xil talqin qilingan. Bu jihatdan rus va o‘zbek tilshunosliklaridagi talqinlar o‘zaro yaqin va o‘xshash. Unga ko‘ra, bilingvizm ikki mustaqil tilning bir hududda amal qilishi, diglossiya esa bir tilning ikki yashash shaklidan foydalanishni bildiradi.

Diglossiya va bilingvizm hodisalarini E.Begmatov sal farqli tushunadi: O‘zbek tili o‘zaro aloqada bo‘lgan va ta’sirlangan fors-tojik tili, arab tili, rus tili uning lug‘at tarkibida sezilarli iz

qoldirdi. Buning o‘ziga xos sabablari bor. Bunday sabablarning muhimlaridan biri o‘zbek tilining fors-tojik, arab va rus tillari bilan aloqasida o‘zbek tilining egasi bo‘lgan xalqda ikkitillilikning yuzaga kelganligidir. Tillarning o‘zaro aloqasi va hamkorligi ko‘p holda bu tillar orasida so‘z almashishga, bir tildan ikkinchi tilga so‘z olishga bois bo‘ladi. Bir tildan ikkinchi tilga so‘z o‘tishi uchun sharoit lozim. Bu sharoit ikki tilning shunchaki aloqasi, yonma-yon yashashi, hududiy yaqinlashishi emas, balki o‘zaro ta’siri, hamkorligi, bu asosda yuzaga keluvchi ikkitillilik hodisasidir. So‘z o‘zlashishi uchun qabul qiluvchi til egalari yoki ularning ma’lum qismi qabul qilinuvchi lisoniy unsur mansub tilni ma’lum darajada bilishi lozim [2; 80]. Mazkur iqtibosdan ikkitillilik hodisasining ikki noqarindosh til o‘rtasida yuzaga kelishi anglashiladi.

O‘zbek tili o‘z tarixiy taraqqiyoti davomida turkiy tillar oilasiga mansub qardosh tillar bilan, chunonchi, qozoq, qirg‘iz, uyg‘ur, qoraqalpoq, turkman, ozarbayjon tillari bilan aloqada bo‘lgan. Bunday munosabat sho‘rolar davrigacha ham, undan keyin ham davom etdi. O‘zbekistonning ko‘pgina tumanlarida o‘zbek va qirg‘iz, o‘zbek va qozoq, turkman va o‘zbek, tatar va o‘zbek, qoraqalpoq va o‘zbek tilida parallel gaplasha oluvchi ikki tili aholi mavjud. Bunday diglossiya, ya’ni genetik jihatdan aloqador bo‘lgan ikki qardosh tilda gaplashish O‘zbekistonda yashovchi aholi orasida qadimdan mavjuddir [2; 80-81].

Bilingvizm (lotincha bi – qo‘shma so‘zlarda – ikki, ikki tomonlama, lingua – til) [4; 75]. Bilingvizm sharoitida bitta jamoada ikki til amal qiladi, bu tillardan turli kommunikativ sohalarda foydalaniladi. Diglossiyada bir tilning ijtimoiy boshqa-boshqa shakllari (masalan, vazifaviy uslublar) o‘zaro ta’sirlashadi. Yoki bir tilning (adabiy til, koyne, dialektlar bilan) turli shakllari